

## ONLAYN-NKM YOKI VIRTUAL KASSA CHEKLARI QONUNCHILIK TALABLARIGA MOSLIGINI TEKSHIRISH

**Muminov Azizbek Yakubaliyevich**

*Fargʻona imkoniyatlari cheklangan shaxslar uchun  
ixtisoslashtirilgan kasb-hunar maktabi oʻqituvchisi*

**Annotatsiya:** *EHF, ishonchnoma va onlayn-NKM cheklarida tovarlarning nomlarini aks ettirish talabini buzish – bu soliq tekshiruvi uchun signal va sababdir. Shuning uchun onlayn-NKM, hisobvaraqa-fakturalarda va boshqa elektron hujjatlarda tovarlar bilan ishlash vositalaridan foydalanishni oʻrganish muhimdir.*

**Kalit soʻzlar:** *Onlayn-NKT cheklaridagi maʼlumotlar, Onlayn-NKMni sozlash, TXKM, «Onlayn-NKM va virtual kassa haqida maʼlumot»*

Soliq organlarining tadbirkorlarga MXIK va onlayn-NKT cheklarida aks ettiriladigan oʻlchov birliklarini tartibga solish soʻralgan yaqin kunlardagi xatidan soʻng TXKMga murojaat qiluvchilar soni ortdi. TXKM xodimlaridan onlayn-NKT cheklari umuman qonunchilik talablariga qanchalik mos kelishini tekshirish soʻralmoqda.

Onlayn-NKT cheklaridagi maʼlumotlarga qoʻyiladigan talablar aholi bilan pulli hisob-kitoblarni amalga oshirishda onlayn nazorat-kassa mashinalari va virtual kassa tizimini qoʻllash tartibi toʻgʻrisidagi Nizomning 7-bandi bilan belgilangan. Agar chek hatto bitta majburiy talabga javob bermasa, onlayn-NKM va virtual kassadan foydalanish taqiqlanadi.

1-maslahat: chekni chop eting va uni SoliqUz yordamida tekshiring.

Sizning cheklaringiz belgilangan talablarga qanchalik mos kelishini tushunish uchun mutaxassis boʻlish shart emas. Kassangizdan chekni olish (elektron chekni ochish mumkin) hamda unda qonun bilan belgilangan barcha rekvizitlar toʻgʻri aks ettirilganmi-yoʻqmi, tekshirish kifoya. Xatolar koʻpincha cheklarda realizatsiya qilingan tovarlar nomenklaturasi aks ettirilganda uchraydi.

Nazorat uchun chekdagi QR-kodni skanerdan oʻtkazing:

- Bu skaner yordamida QR-kodlarni oʻqish uchun yordam beradi. Natijada havola paydo boʻlishi kerak, undan oʻtishingiz bilan ekranda chekingizning elektron versiyasi ochilishi kerak;

- SoliqUz mobil ilovasi yordamida (bir vaqtning oʻzida keshbek hisoblanishi uchun chekni roʻyxatdan oʻtkazing). Agar hammasi muvaffaqiyatli oʻtgan boʻlsa, siz shuningdek SoliqUz mobil ilovasida chekning elektron versiyasiga kirish imkoniga ega boʻlasiz. Baʼzi xatolarning koʻrsatkichi keshbekni hisoblash uchun roʻyxatdan oʻtishni rad etish yoki aniq xatolarni koʻrsatish boʻlishi mumkin (asosan MXIKdan notoʻgʻri foydalanish bilan bogʻliq).

2-maslahat:my3.soliq.uz saytidagi «Onlayn-NKM va virtual kassa haqida ma'lumot» interaktiv xizmatida aks ettiriladigan ma'lumotlarni muntazam tekshiring.

«MXIK va o'lchov birliklaridagi xatolar» ilovasiga alohida e'tibor qarating – unda ushbu rekvizitlarda xatolar bo'lgan cheklar aks ettiriladi.

Cheklar va tushumlar bo'yicha hisobotlar aks ettiriladigan ma'lumotlarning to'g'riligiga oid savol tug'dirmasligi kerak.

Bunday tekshiruvni haftada kamida bir marta o'tkazib turishni tavsiya qilaman, chunki xatolarni tuzatish murakkab ish. O'nlab, ba'zan esa yuzlab cheklarga tuzatish kiritish kerak bo'lganda ayniqsa qiyin bo'ladi. Axir aksariyat hollarda xatolarni tuzatish uchun har bir chek bilan alohida ishlash kerak.

Allaqachon urilgan cheklardagi xatolarni tuzatish – ishning yarmi. Keyingi cheklarda xatolarga yo'l qo'ymaslik uchun onlayn-NKT sozlamalarida va unga kiritilgan mahsulot nomenklaturasida noaniqliklarni bartaraf etish kerak.

O'zingizning TXKMga murojaat qilib, kassangizni sozlash bo'yicha amaliy yordam va maslahat olishingiz mumkin. Kassangizning konstruktorlik xususiyatlari tufayli universal tavsiyalar berish qiyin.

3-maslahat: kassalaringizning dasturiy ta'minotini tekshiring.

Keyingi vaqtlarda Soliq qo'mitasi MXIK va o'lchov birliklaridagi xatolarga alohida e'tibor qarata boshladi, chunki turli sabablarga ko'ra ular juda ko'paydi. Agar siz so'nggi avlod dasturiy ta'minotidan foydalanayotgan bo'lsangiz, unda bunday xatolar ehtimoli kam.

Savdo kassangiz dasturiy ta'minoti vaqt talablariga qanchalik javob berishini tushunish uchun mahsulotlarni Excel faylidan onlayn- NKT xotirasiga yuklashga harakat qiling. Avval noto'g'ri MXIKni, keyin esa MXIK uchun noto'g'ri o'lchov birligini ko'rsating. Agar hiyla ish bersa va kassa chekni ursa, demak, u belgilangan talablarga javob bermaydi. Darhol TXKMga murojat qiling, aks holda xato urilgan cheklar soni juda ko'p bo'ladi.

TXKM xodimi kassangizni sizda cheklar bilan muammo bo'lmaydigan qilib sozlashi kerak. Agar murojaat samara bermasa, u holda kassani yanada zamonaviyroq versiya va modellarga o'zgartirish haqida o'ylash kerak.

«Onlayn-NKMni sozlashda TXKM xodimi bilan nizo yuzaga keldi. Bizning do'konlarimiz kolbasa va pishloq sotishga ixtisoslashgan, bozordagi «qo'shni-do'konlar» tajribasi bo'yicha cheklarda «assortimentdagi kolbasa», «assortimentdagi pishloq» deb ko'rsatmoqchimiz. Biroq TXKM xodimi bu noto'g'ri ekanligini, albatta pishloq yoki kolbasa nomi ko'rsatilishi kerakligini aytdi. Masalan, «Samarqand pishlog'i», «Eritilgan PureMilky», «Ruzmetov «Oilaviy» kolbasasi». Bu sotuvchilarning ishini ancha murakkablashtiradi, TXKM xodimi esa gapini hech nima bilan asoslay olmayapti».

Bu vaziyatda TXKM xodimi haq. Savdo tashkilotining vakili xohlaganidek yo'l tutish – 4-son BHMS «Tovar-moddiy zaxiralar» hamda Aholi bilan pulli hisob-kitoblarni amalga oshirishda onlayn-NKM va virtual kassa tizimini qo'llash tartibi

to'g'risidagi nizom talabini buzishni anglatadi. Ushbu normativ-huquqiy hujjatlardan kelib chiqadiki, tovar qanday tovar haqida gap borayotgani tushunarli bo'lgan tarzda belgilanishi kerak.

Agar tovar majburiy raqamli markirovkalanishi kerak bo'lsa (masalan, suv, sharbatlar), siz aniq bir mahsulot nomlarini ularning umumiy belgisi bilan almashtira olmaysiz. Raqamli markirovkalash hujjatlarda tovar nomi bilan birga raqamli markirovkalash belgisi ko'rsatilishi kerakligini nazarda tutadi. Buning uchun tovar qadog'idan Data Matrix o'qilishi kerak. Data Matrix har bir tovar birligini noyob qiladi. Aynan shuning uchun yig'ilgan kodlarni hisobga olgan holda har bir Data Matrix mustaqil pozitsiya sifatida qayd etiladi. Bu boshqa yo'l bilan ishlamaydi.

Raqamli markirovkalash qoidalarini buzganlik uchun, xususan Soliq kodeksining 227-1-moddasi bo'yicha jarimalar nazarda tutilgan. Raqamli markirovkalashni joriy etish jadvallariga qarang – ular tugagandan so'ng bu norma soat kabi ishlaydi. Axir raqamli markirovkalanadigan tovarlarni kuzatish jarayoni to'liq avtomatlashtirilgan.

Amaliyotda, odatda kichik do'konlarda tovarlar nomi o'rniga cheklarga «oziq-ovqat mahsulotlari» yoki shunga o'xshash narsalarni yozish holatlari uchraydi. Bunday harakatlar Soliq kodeksining 223-moddasi 5-qismining sanksiyalariga sabab bo'ladi, chunki «oziq-ovqat mahsulotlari»ga kolbasa, shirinliklar, sut mahsulotlari va iste'mol qilinadigan barcha narsalar, ya'ni turli xil MXIKka ega bo'lgan tovarlar kiradi. «Oziq-ovqat mahsulotlari» yozuvi esa, qoida tariqasida, qandaydir bitta MXIK bilan birga keladi. Yana bir bor ta'kidlayman: Soliq kodeksining 223-moddasiga muvofiq hisobvaraqa-fakturalarda yoki nazorat-kassa texnikasi cheklarida olingan tovarlar (xizmatlar) nomenklaturasiga yoxud faoliyatning o'ziga xos xususiyatlariga va amalga oshiriladigan turlariga muvofiq bo'lmagan identifikatsiya kodlarini aks ettirish EHF yoki nazorat-kassa texnikasi cheklarida ko'rsatilgan realizatsiya qilingan tovarlar (xizmatlar) qiymatining bir foizi miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Buxgalter.uz. Onlayn-NKM yoki virtual kassa cheklari qonunchilik talablariga mosligi qanday tekshiriladi. 14 marta 2024 g.

2. Internet manbalari

3. Hamidullo o'g'li, T. H. (2023). RAQAMLI TEXNOLOGIYALARI DAVRIDA CHATGPT VA HOZIRGI KUNDAGI O'RNI. Scientific Impulse, 2(16), 320-325.

4. Горовик, А. А., & Турсунов, Х. Х. У. (2020). Применение средств визуальной разработки программ для обучения детей программированию на примере Scratch. Universum: технические науки, (8-1 (77)), 27-29.

5. Tursunov, H. H., & Hoshimov, U. S. (2022). TA'LIM TIZIMIDA KO'ZI OJIZ O'QUVCHILARNI INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANIDA O'QITISH TEXNOLOGIYALAR. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(5), 990-993.

6. Hamidullo o'g'li, T. H. (2022). HOZIRGI KUNNING DOLZARB IMKONIYATLARI. JAWS VA NVDA DASTURLARI. Scientific Impulse, 1(2), 535-537.
7. <https://www.google.com/intl/ru/slides/about/>
8. Kamolovich, B. E., & Hamidullo o'g'li, T. H. (2023). SOHADA MICROSOFT OFFICE WORD 2003 VA 2021 DASTURLARI QO'LLANILISHI VA AFZALLIKLARI. Scientific Impulse, 1(11), 376-382.
9. Mamayusupovich, H. R. (2024). Development Of Professional Competence Of Future Teachers Of Technology In The Process Of Extracurricular Activities. Progress Annals: Journal of Progressive Research, 2(1), 35-37.
10. Zokirov, S. I., Sobirov, M. N., Tursunov, H. K., & Sobirov, M. M. (2019). Development of a hybrid model of a thermophotogenerator and an empirical analysis of the dependence of the efficiency of a photocell on temperature. Journal of Tashkent Institute of Railway Engineers, 15(3), 49-57.
11. Hamidullo o'g'li, T. H. (2023). TA'LIM TIZIMIGA MICROSOFT OFFICE 2003 VA 2020 DASTURLARINI QO'LLANILISHI VA IMKONIYATLARI. Scientific Impulse, 2(13), 353-357.
12. Кучаров, С. А. (2021). ТЕХНОЛОГИЯ ТА'LIMI O'QITUVCHISINING TEXNOLOGIK MADANIYATI. Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал, (1-Махсус сон), 116-118.
13. Тураев, А. А., Хайдаров, Р. М., & Хожиев, Ж. Ж. (2015). Фотовольтаический эффект в диодном режиме включения полевого транзистора. Молодой ученый, (23), 40-43.
14. Mamayusupovich, H. R. (2023). OPPORTUNITIES FOR THE DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCE OF A TEACHER OF TECHNOLOGY. International Multidisciplinary Journal for Research & Development, 10(12).
15. Mamayusupovich, H. R. (2023). BO'LAJAK TEXNOLOGIYA FANI O'QITUVCHILARINI TAYYORLASH JARAYONIDA ELKTRON DARSLIKLARNI QO'LLASHNING AHAMIYATI. Наука и технологии, 1(1).
16. Haydarov, R. (2022). TEXNOLOGIYA TA'LIMI O'QITUVCHISINING TEXNOLOGIK MADANIYATI. Физико-технологического образование, (3).
17. Mamayusupovich, H. R. (2022). Design of Educational Technologies in the Development of Professional Competences of Technology Teachers.
18. Хайдаров, Р. М. (2021). ТЕХНОЛОГИЯ ТАЪЛИМИ ЎҚИТУВЧИСИНING KACBIЙ KOMPETENTЛИГИНИ TAKOMILLASHТИРИШ TEXNOLOGIЯСИ. Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал, (1-Махсус сон), 273-277.
19. Hudaykulovna, M. F., & Qosimov, P. S. U. (2019). Formation of a Conscious Attitude to Study and Work, Ensuring Business Skills for Mental and Physical Development. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 7(12).

20.Khudoikulovna, M. F. (2021). The role of heredity in the development of creativity. In Euro-Asia Conferences (Vol. 4, No. 1, pp. 5-6).

21.Khudoikulovna, M. F. (2021, March). THINKING MOTIVES THAT ENCOURAGE STUDENTS TO BE CREATIVE. In E-Conference Globe (pp. 65-66).

22.Мукумова, Ф. Х. (2021). МИЛЛИЙ ХУНАРМАНДЧИЛИК ТАРИХИНИ ЎРГАНИШДА ЎҚУВЧИЛАРНИ ИЖОДКОРЛИККА ҚИЗИҚТИРИШНИНГ ДИДАКТИК ИМКОНИАТЛАРИ: DOI: <https://doi.org/10.53885/edinres.2021.77.73.052>  
Мукумова Феруза Худойкуловна Термиз давлат университети, технологик таълим кафедраси катта ўқитувчиси. Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал, (1-Махсус сон), 154-159.

23.Мукумова, Ф. Х. (2021). ОСНОВНЫЕ КРИТЕРИИ ПОДГОТОВКИ УЧИТЕЛЯ К УЧЕБНОМУ ПРОЦЕССУ: DOI: <https://doi.org/10.53885/edinres.2021.83.90.053>  
Мукумова Феруза Худайкуловна, Преподавательница Термезского государственного университета. Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал, (1-Махсус сон), 150-153.